

## UVAYSIY TIMSOLIDA JAMIYATDA AYOLLARNING O'RNI

*Saidova Sevinch Soibjon qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va dabiyot  
yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Qo'qon adabiy muhitining vakilasi Uvaysiy timsolida jamiyatimizda ayollarning o'rni va mavqeい, va shoiraning lirik merosi, tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** Gender stereotip, chiston, xalfa, murrabo, manzuma ijod, doston, g'azal, muxammas, musaddas.

Uvaysiy (1780-1845) – o'zbek adabiyotining taniqli shoiras. Uvaysiy 1780-yilda Marg'ilonda tavallud topgan. Uvaysiy shoiraning taxallusi hisoblanib, asl ismi Jahon bo'lgan. U badavlat oilada tug'ilib o'sgan, bu esa uning ilm olishiga katta imkoniyat yaratgan. Uvaysiyning o'z davri ayollar orasida chiqqan eng yirik shoiralardan biri hisoblanadi. Uning she'rlari asosan, ishqiy va ahloqiy mavzularda bo'lib, unda sevgi, go'zallik, hayotning ma'nosini kabi mavzularda o'z aksini topgan. Uvaysiy o'zining "Devon" nomli she'riy to'plami bilan mashhur. U o'z she'rlarida xalqning dardini, his-tuyg'ularini ifoda etib, ayollar hayotidagi qiyinchiliklarni tasvirlagan. Uvaysiy o'zbek adabiyotida ayol shoiralar orasida yorqin iz qoldirgan. Uning ijodi nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, u ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilgan. Uning asarlarida ayol obrazlari kuchli, don ova jasur bo'lib, an'anaviy gender stereotiplarini rad etadi. Gender stereotip – bu jamiyatda erkaklar va ayolar uchun qabul qilingan an'anaviy rollar, xulq-atvor, vazifalar yoki ko'rinishlari to'g'risida keng tarqalgan, ba'zan noto'g'ri tushunchalardir. Ular odatda erkaklar va ayollarning qanday bo'lishi yoki qanday ishlari bilan shug'ullanishi kerakligini belgilaydi.

Uvaysiy oilada xat-savodi chiqarib, avval xalfa, so'ngra onasining yonida maktabdorlik qilgan. Akasi Oxunjon hofizdan she'riyat ilmini o'rgangan, tez orada shoira, otin sifatida tanilgan. Xalfa – bu shariat qoidalarini yaxshi biladigan o'qimishli inson. Otin- bu eski maktablarda qizlarga din va shariatdan bilim beradigan o'qituvchi. Uvaysiy shuning uchun Jahon otin nomini oladi. Shoira ayniqsa, aruzni, muammo ya'ni (she'rda fikrni yashirib ifodalsh) san'atini mukammal egallagan. Qo'qon adabiy muxiti bilan yaqinlashib, mushoiralarda qatnashgan. Saroyda Nodir va boshqa xotin-qizlarga she'riyat ilmidan dars berib, ustozlik qilgan Uvaysiy to'rtta devon tuzganligi ma'lum. Lekin bu devonlarning asl qo'lyozmalari topilmagan. Uvaysiy mumtoz o'zbek she'riyatining barcha janrlarida ijod qilgan.

Navoiy, Fuzuliy, va boshqalarning asarlariga ham muxammaslar bog‘lagan. Shoiraning adabiy merosi 269 g‘azal, 29 muxamma, tugallanmagan bir dostoni ham mavjud.

Uvaysiy ayollar erkinligini qo‘llab-quvvatlab, ularning o‘z qadr-qimmatini anglashlari va mustaqil qaror qabul qilishlariga urg‘u beradi. Uvaysiy ijodi o‘z davrida ayollar mavqeini oshirishga hissa qo‘shtigan va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Uvaysiyning "Qaychi" chistonida ham tashbeh san’ati qo’llanib, qaychining ikki oyog‘i ikki do’st timsolida keltirilgan.

Ikki mahbubni ko‘rdim, ikkisin kindigi bir, Ikkisin orasiga tushsang, topadursan kasir "Kun-tun" chistonida ham istiyor va vositasida o‘xshatilayotgan qism ikki mahbubaga qiyoslanadi.

Chiston har bir shoirning oddiy narsalardan badiiy obrazlar yarata olish mahoratini ko‘rsatadi. Navoiy va Uvaysiy ijodida chistonning yuksak mohiyatga ega ekanini kuzatdik. Navoiyni chistonning poydevorini barpo etgan buyuk san’atkor, Uvaysiyni esa Navoiydan keyingi mohir chistonnavis, chistonning eng ko‘p va beqiyos namunalarini yaratgan ijodkorlar desak, mubolag‘a bo’lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Uvaysiy she’riatidan, - ”O‘zbekiston nashriyotidan”
2. Uvaysiy. Devon-T”Fan” 1988
3. <https://tafakkur.net/jahon-otin-uvaysiy.haqida>
4. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/452/presentations/PQMdhCokYFLJ26BQSgahqNc3qRwpO0odLbsvK9Yr.pdf>
5. <https://ilmlar.uz/uvaysiy-gazallari-va-sherlari-toplami/>
6. <https://meblowymajsterkowicz.pl/p7y4/9feg>